Aytish joizki, Rossiyada investitsion faoliyatning VIII asrning 2-yarmidan 1917-yilgacha rivojlanishi davri revolyutsiyaga qadar rivojlanish davri deb eʼtirof etiladi. Bu davrga qadar pul mablagʻlari cherkovlarda yoki ayrim xususiy shaxslarda majburiyatli qarzlar sifatida saqlanib kelingan. Huqumat ushbu pul mablagʻlarini imtiyozli tarzda ishlatib kelgan. Mamlakatda uzoq muddatli barqaror kapitalning yetarli emasligi sababli Petr I, Yelizaveta Petrovna va Yekaterinы II lar Rossiyaga tashqi qarzlarni olishga majbur boʻldilar. Biroq XVIII asrdagi xalqaro siyosiy turmush tarzi yuqori darajada nobarqaror edi. Bu davrda Yevropa harbiy yurishlar joyiga aylanib qoldi, natijada davlatlar chegarasi, ularning hukumati, podsholar tez-tez oʻzgarib turgan, Yevropa hududida bir davlat ikkinchi davlatga qarz mablagʻlarini berishga choʻchiganlar, bunda pul mablagʻlari faqat oʻz dushmanlarining qurollanib olishiga berilish mumkin boʻlgan, xolos. Xususan, XVIII asrdagi tashqi qarzlar bir mamlakatdan boshqa mamlakatga faqat oltin yoki kumush tanga koʻrinishdagi metall pullar oʻtkazmasi shaklida oʻz oʻrniga ega boʻlgan. Rossiyada kredit tarixi 1769 yili shakllangan. Bu davrda Yekaterinы II Gollandiyaga ilk marta qarz bergan. Aytish kerakki, Rossiya imperiyasida investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga yoʻnaltirish anʼanasi eng yuqori darajada qoʻllab-quvvatlangan. 1763-yilda imperator Yekaterinы II Oʻrta yer dengizidagi savdoda oʻziga tegishli aksionerlik kompaniyaga faqat yigirma dona aksiya sotib olishga ruxsat bergan. Investitsiya egalari milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni yoʻnaltirish boʻyicha jiddiy shugʻullanganlar. 1830-yildan boshlab imperiyaning barcha toifasidagi shaxslar milliy fond qiymatliklarini sotib olishda faol ishtirok etadilar. Revolyutsiyaga qadar rivojlanish davrda investitsiya faoliyatining eng yirik ishtirokchilari zamindorlar hisoblanadi. Shaxsiy dvoryanlar arxivida bank muassasida saqlangan aksiyalar, obligatsiyalar va guvohnomalar mavjud. Imperator Aleksandr I ning nabirasi va uning oila-aʼzolari Rossiya – Amerika kompaniyasining aksionerligiga aʼzo boʻlganlar. Hozirga qadar ham imperator familiyasida boʻlgan shaxslar milliy pul mablagʻlarini tadbirkorlik faoliyatiga va fuqarolariga sarflab keladilar.

Islohatdan soʻng Aleksandr II feodalizmga tegishli eskirgan sarqitlarning koʻpchilik qismini bekor qildi. Rossiya imperiyasida zamonaviy investitsiya qogʻozlari muomalaga chiqarish boshlandi. Islohatda yerga egalik qilish sohasidagi tub oʻzgarishlar; sanoat, qishloq xoʻjaligi, qurilish, transport, sugʻurta va bank sohalarida tadbirkorlik faoliyatiga qoʻyilgan cheklovlarning olib tashlanishi; nodavlat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini yuritish qoidalarini erkinlashtirish; xorijiy kapitalni iqtisodiyotning real tarmogʻiga foydalanishga ruxsat berish; oʻz-oʻzini mahallabay boshqarish; taʼlim tizimini takomillashtirish kabi tadbirlar oʻz aksini topgan. Islohat natijasida zamindorlar shaxsiy erkinlikka ega boʻldilar, koʻpgina davlatmand zamindorlar yer sotib olishga erishdilar. Kredit, isteʼmol, sotish va sotib olish, qayta ishlash sohalarida korporativ harakatning rivojlanishi dehqon xoʻjaliklarining hosildor yerga egalik qilishlariga shart-sharoit yaratib berdi.

Ushbu omillar kapital bozorining intensiv rivojlanishiga, mulkchilik shakllari shaxslar sonining koʻpayishiga sabab boʻldi, natijada fabrika, temir yoʻl, bank, savdo va sugʻurta sohalarini tashkil etish va rivojlantirish uchun pul mablagʻlari zarur edi.

XIX asrning 50-yiliga qadar moliyaviy bozorida davlat banklari monopoliyaga aylandi. Banklar faoliyati sharofati bilan boʻsh turgan mablagʻlar kapital bozorini tark etdi, kredit muassasalari bank resurslarini shakllantirdi. Resurslar dvoryanlar va Davlat xazinasiga uzoq muddatli ssuda koʻrinishda yoʻnaltirildi. Pul mablagʻlariga boʻlgan talab monopoliyaning boshqa shakliga (davlat obligatsiyalarining qimmatli qogʻozlar bozorida deyarli

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

ustunligiga) muvofiq keladi, bu kapital bozorining tarkibiy qismini ko'rsatadi. Bunda faqat nodavlat qimmatli qog'ozlari (sug'urta jamiyatlar aksiyalari) soniga e'tibor qaratilgan.

Iqtisodiyotda bozor munosabatlarining sifat jihatdan rivojlanishi oqibatida kapital bozorining demonopolizatsiya jarayoni boshlandi. Bozorda yangi subyektlarning shakllanishi natijasida investitsiyaga bo'lgan talab yuzaga keldi. Bu subyektlar turli tarmoqlardagi aksionerlik jamiyatlaridan, temir yo'llar jamiyatidagi kabi transport sohasiga qarashli yirik korxonalardan iborat edi. 1857-yilda 14 jamiyatning aksionerlik kapitali 300 million rub.ni tashkil etdi, 1858 yilda ular safiga 51,2 million rub. bilan 36 jamiyat kirgan. Ularning barchasi muomalaga aksiya va obligatsiyalarni chiqarish orqali pul mablag'larini jalb qilgan.

Yangi aksionerlik jamiyatlarining ta'sischilari aksiya sotib oluvchilarga dividend xususida jozibador va'dalar tarqatdilar va qarz majburiyatlari bo'yicha saxovatli stavkalar belgilagan. Aksiya bo'yicha dividend darajasi ham obligatsiya bo'yicha foiz ham bir qatorda davlat banklarining omonatlariga belgilangan foiz stavkasidan yuqori darajada o'rnatilgan. Davlat kredit muassasalari esa omonat va ssudalarga Moliya vazirligi farmoyishiga muvofiq foiz stavkalari belgilangan. Ular davlat banklaridan arzon kreditlar olishga qiziqqan. Shu sababli XIX asrning 50-yillarida davlat banklarining foiz stavkalari bozor foiz stavkasi darajasiga nisbatan past bo'lgan. Natijada banklardan pul mablag'larining oqib chiqishi boshlandi.

Bu vaqtda xorijiy pul burjuaziyasining Rossiya hukumati tomonidan berilgan majburiyatlar ostida ajratilgan kreditlarga qiziqishi keskin pasaygan. Mamlakatning Qrim urushida mag'lubiyat alamini tortganidan so'ng ushbu jarayonlarga qiqziqishi yanada susayib borgan. Ammo ko'pchilik xorijiy tadbirkorlar o'z investitsiyalarini Rossiya iqtisodiyotiga yo'naltirishni istagan, buning uchun ishonchga kirgan rossiyalik ta'sischilar ishtirokida daromad keltiradigan aksionerlik jamiyatlariga kapitalni jalb qilish kerak bo'lgan. Hukumatni idora qiluvchi davradagi shaxslar mamlakat iqtisodiyoti inqiroz holatidan, feodalizm davrida saqlanib qolgan qaloqliklardan xorijiy investitsiyalari yordamisiz xalos bo'lish qiyin ekanligiini tushunib yetganlar.

Nikolay I G'arbdagi demokratik tendensiyalarning Rossiyaga kirib kelishidan xavfsiraganligi sababli mamlakatni "temir parda" bilan to'sib qo'ydi, bu esa xorijiy investitsilarning iqtisodiyotga kirib kelishiga to'siqlik qildi. Aleksandr II xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotga kirib kelishiga chegarlarni ochgan va ular uchun ishonchli himoya tizimini shakllantirgan. Natijada Rossiya imperiyasiga g'arb kapitali, tovarlar, texnologiyalar va mutaxassislar yopirilib keldi.

Bozor xo'jaligi sharoitida milliy va xorijiy mulkdorlar o'zining bo'sh turgan kapitallarini joylashtirish shaklini tanlashi mumkin bo'lgan. Pul mablag'lari aksionerlik jamiyatining aksiyalari va obligatsiyalarini sotib olishga yo'naltirilgan, tijorat banklariga pul mablag'lari yuqori naf keltiradigan foizda depozitlarga joylashtirilgan, pul mablag'lari shirkatlarga pay olib kelgan, Rossiya hukumati qimmatli qog'ozlarni sotib olgan, veksellarni garovga qo'yish orqali qarz oluvchiga pul mablag'larini "ko'paytirib olish"i uchun imkoniyat bergan va boshqalar.

Bunda bo'sh turgan kapitalning har bir egasi bu xildagi investitsiyalar rentabellik darajasidan kelib chiqqan holda faoliyatni amalga oshirgan. Kapitalning har bir egasi risk omiliga e'tibor bergan holda yo'naltirilgan kapitalidan maksimal darajada foyda olish imkoniyatiga egalik qilgan. Bu paytda feodal ko'rnishidagi kapitalning monopollashgan bozori o'zining faoliyatini tugatgan. Bu holatda talab bilan taklif nisbatini pul kapitalida ishtilayotgan bozor bahosi belgilab bergan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiyaga nazariy jihatdan yondoshadigan bo'lsak, unga iqtisodiy kategoriya sifatida turlicha ta'riflar berilgan, xususan, P. Samuelsonning fikricha, investitsiyalash daromadlarni joriy iste'mol uchun ishlatmasdan, ularni kelajakda ko'proq foyda olib, faoliyatni kengaytirish uchun sarflash demakdir. L. Dj. Gitmanning fikricha esa "Investitsiya – kapitalni joylashtirish usuli bo'lib, u foyda qiymatini saqlab turishi va (yoki) uning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerak".

N. S. Guskov "Investitsiya va kapital qo'yilmalar sinonim bo'lib, ularga investorlar tomonidan foyda olish maqsadida kiritiladigan mulkiy va intellektual boyliklarning hamma ko'rinishlari kiradi" degan mazmunidagi fikrlarni qo'llab-quvvatlaydi.

N. V. Igoshinning fikricha, "Investitsiyalar – sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga uzoq muddatli kapital qo'yilma ko'rinishida kiritiladigan sarflarning yig'indisidir".

Rossiyalik olim A. M. Margolin "Investitsiyalar – pul mablag'lari, maqsadli bank jamg'armalari, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashina, asosiy vositalar va boshqa mulk ko'rinishidagi kapital qo'yilmalarni, shuningdek, pul qiymatiga ega bo'lgan mulkiy va nomulkiy huquqlarni investorning strategik maqsadlarini ko'zlab ishlab chiqarish va boshqa faoliyat obyektlariga kiritishdir" degan mazmunidagi fikrlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rish mumkinki, investitsiyalar ishlab chiqarishni rivojlantirishda va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblangan kapitalni shakllantirishda muhimligi bilan ahamiyatlidir.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Investitsiyalar – bu tadbirkorlikning faoliyat turlariga qo‘yilayotgan mulkiy va intellektual qimmatliklarning barcha turlari bo‘lib, buning natijasida foyda (daromadlar) shakllanadi yoki ijtimoiy samaraga erishiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida investitsiyalar iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda ularga doir huquqlar sifatida ta’riflangan.

Investitsiya qo‘yilmalari jarayonining mazmuni O‘zbekiston Respublikasining “Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi Qonunida batafsilroq ko‘rib chiqilgan: investitsiya – xo‘jalik operatsiyasi bo‘lib, u asosiy fondlar, nomoddiy aktivlar, korporativ huquqlar va va qimmatli qog‘ozlarni asosiy vositalar va mol-mulkka ayirboshlashni ko‘zda tutadigan xo‘jalik operatsiyasidir. Ayirboshlash qimmatliklari yoki vositalari deganda respublika qonunchiligiga ko‘ra, quyidagilar ko‘zda tutiladi: pul va boshqa moliyaviy mablag‘lar, shu jumladan kreditlar, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar; ko‘char va ko‘chmas mol-mulklar (binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa moddiy boyliklar) hamda ularga doir huquqlar; intellektual mulk obyektlari, shu jumladan, texnikaviy hujjatlar tarzida tuzilgan texnika, texnologiya, tijoratga oid va boshqa bilimlar majmuyi, u yoki bu turdagi ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilimlar va ishlab chiqarish tajribasi, nou-xau; yerga va boshqa tabiiy resurslar, binolar, inshootlar, uskunalarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi, shuningdek mulk huquqidan kelib chiquvchi ashyoviy huquqlar; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa boyliklar. Investitsiyalarning yuqorida keltirilgan ta’rifidan kelib chiqib, har qanday jamg‘arma qo‘yilmalari ham (mulkiy va intellektual qimmatliklar) investitsiyalarni o‘zida mujassamlashtiravermasligini qayd etish lozim. Masalan, agar bir jismoniy shaxs boshqa jismoniy shaxsdan qimmatli qog‘ozlarni olsa, bunday turdagi investitsiyalar cheklangan tavsifga ega bo‘ladi. Chunki bunda faqat ular egalarining o‘zgarishi yuz beradi, ya’ni pul mablag‘larini o‘tkazish va kelajakda aksiyalari qo‘lga kiritilgan kompaniya daromadlarini olish huquqiga ega bo‘lish aktlari o‘rinli bo‘ladi. Keyingi, unchalik muhim bo‘lmagan, investitsiyalar mazmunini aniqlashtiradigan ta’rif – bu investitsiya faoliyatidir. Investitsiya faoliyati – bu investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmuyidir. Investitsiya faoliyati quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: yuridik shaxslar tuzish yoki ularning ustav jamg‘armalarida (kapitallarida) ulushli ishtirok etish, shu jumladan, mol-mulkni yoki aksiyalarni olish; qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish; konsessiyalarni, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo‘lgan konsessiyalarni olish; mulk huquqini, shu jumladan, ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari obyektlariga, turar joylarga mulk huquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan, ijara asosida foydalanish) huquqini qonun hujjatlariga muvofiq olish; qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa shakllarda. Har qanday mol-mulk, shu jumladan, xalq xo‘jaligining barcha sohalaridagi asosiy fondlar va aylanma mablag‘lar, qimmatli qog‘ozlar, maqsadli pul qo‘yilmalari, ilmiy-texnika mahsuloti, intellektual qimmatliklar, boshqa mulkiy obyektlar hamda mulkiy huquqlar investitsiya faoliyatining obyekti hisoblanishi mumkin. Barpo etilishi va foydalanilishi qonun hujjatlarida belgilangan sanitariya-gigiena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura shaharsozlikka oid va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan obyektlarga investitsiya kiritish taqiqlanadi. Quyidagilar investitsiya faoliyatining subyektlari (investorlar va ishtirokchilar) bo‘lishlari mumkin: O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari – fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari; mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi organlari; xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va O‘zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari; hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

Investorlar qonun hujjatlariga muvofiq buyurtmachi (mablag‘ kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo‘lishlari, shuningdek investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi bo‘lishlari mumkin. Investitsiya faoliyatining ishtirokchilari investor bilan tuzilgan shartnoma asosida investorning buyurtmasini bajaruvchi bo‘lishlari mumkin. Investor – bu o‘z mablag‘lari, qarzga olingan va jalb etilgan mablag‘lar, mulkiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyektlaridir. Investorlar qonunga muvofiq, pul qo‘yuvchilar, kreditorlar, xaridorlar sifatida chiqishlari hamda investitsiya faoliyatining har qanday ishtirokchisi vazifasini bajarishlari mumkin. Barcha investorlarning huquqlari mulkchilik shaklidan qat’iy nazar teng va investitsiyalarni har qanday obyektlarga joylashtirish ularning qonun bilan himoya qilinadigan daxlsiz huquqidir. Investitsiya faoliyati ishtirokchilari – boshqa davlatlar fuqarolari va yuridik shaxslari bo‘lib, ular buyurtmalarning ijrochilari sifatida yoki investorning topshirig‘iga ko‘ra, investitsiyalarning amalga oshirilishini ta’minlaydilar.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Investor investitsiyalarning maqsadi, yo'nalishlari va hajmlarini belgilaydi hamda ularni shartnoma asosida, shu jumladan, konkurslar va sotuvlarni tashkil qilish yo'li bilan amalga oshirish uchun investitsiya faoliyatining har qanday ishtirokchilarini jalb qiladi. Davlat va mas'ul shaxs o'z vakolatlaridan tashqari investitsiya faoliyati ishtirokchilarining shartnomaviy munosabatlariga aralashish huquqiga ega emas. Investitsiya sikli – investitsiyalash to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan boshlab investitsiya loyihasini yakunlaydigan bosqichlarigacha, xususan, masalan, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, investitsiya qarorlarini qabul qilish, rejalashtirish va loyihalashtirish, qurilishga tayyorlash, qurish, loyiha ko'rsatkichlariga chiqish va qo'yilmalar qoplanuvchanligi tartibigacha bo'lgan chora-tadbirlar majmuyidir. Investitsiya sikli uchta asosiy davrlardan iborat:

1. Investitsiya oldi bosqichi.
2. Investitsiyalash bosqichi – haqiqiy xarajatlar, mablag'larning qo'yilishi.
3. Eksplutatsiya qilish bosqichi – sarflangan mablag'larni joylashtirish. Investitsiya jarayoni – takrorlanadigan investitsiya sikllaridir.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda investitsiya jarayoni faol ishtirokchilarining soni birmuncha ko'paydi. Moliyaviy vositachilar birmuncha ko'payganligi sababli u jiddiy murakkablashdi. Xalq xo'jaligining tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlarining faoliyati uchun yetarli bo'lgan zaruriy asosiy fondlarni yaratish vazifasini bajaradigan korxona va tashkilotlar tizimi investitsiya majmuasi, deb ataladi. Investitsiya majmuasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Investorlar – kapital qo'yuvchilar.
2. Sanoat va investitsiya majmuasi uchun buyumlarni ishlab chiqarish va yetkazib berish bilan bog'liq korxonalar (asosiy fondlarni yaratish, yetkazib berish, qurilish).
3. Investitsiya banklari.
4. Investitsiya majmuasi bozor infratuzilmasi.
5. Investitsiya majmuasida bozor munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish organlari.

O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi va "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonunlari bilan quyidagi tushunchalar aniqlandi. Chet el investitsiyalari – bu O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, xorijiy investorlar tomonidan investitsiya faoliyati obyektlariga qo'yiladigan qimmatliklarning barcha turlaridir. Quyidagilar chet el investorlari hisoblanadi: respublika qonunchiligidan boshqa qonunlarga ko'ra, tashkil qilingan yuridik shaxslar; O'zbekiston hududida doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar; xorijiy davlatlar, xalqaro davlat va nodavlat tashkilotlari; O'zbekistonning amaldagi qonunchiligiga muvofiq, xo'jalik faoliyatining xorijiy subyektlari sifatida e'tirof etilayotgan boshqa subyektlar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, investitsiyalar yanada kengroq talqin qilinganda, uni keyinroq ko'paytirish maqsadida kapital qo'yilmalarni o'zida mujassamlashtiradi. Bunda kapital o'simi joriy davrda mavjud mablag'lardan iste'molda foydalanishdan voz kechishni investorga qoplab berish, uni risk uchun mukofotlash, inflyatsiyadan yo'qotishlarni joylashtirish uchun yetarli bo'lishi zarur. Kapital o'simi manbayi va investitsiyalarni amalga oshirishning harakatlantiruvchi rag'bati ulardan olinadigan foyda hisoblanadi. Bu ikki jarayonlar – kapital qo'yish va foyda olish turli vaqt ketma-ketligida yuz berishi mumkin. Bu jarayonlarning ketma-ket kechishida investitsiyalar to'liq hajmda tugallangandan keyin birdaniga foyda olinadi. Ularning mutanosib kechishida jarayon to'liq yakunlangunga qadar (uning birinchi bosqichidan keyin) foyda olish mumkin. Investitsiyalarning tugallanish va foyda olish davrlari o'rtasida bu jarayonlarning oraliq kechishida ma'lum vaqt o'tib, uning davomiyligi aniq investitsiya loyihasining xususiyatlariga bog'liq.

"Investitsionnыy menedjment" kitobi muallifi Blankning fikricha, zamonaviy adabiyotlarda investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini tavsiflashda bu tushuncha ba'zan xato yoki juda tor ma'noda talqin qilinadi. Ular tomonidan taqdim qilingan barcha dalillar bilan kelishmaslik mumkin emas.

Uning fikricha, o'ziga xos xato shundan iboratki, investitsiyalar deganda kapital o'simiga ham, foyda olishga ham olib kelmasligi mumkin bo'lgan har qanday kapital qo'yilmalari tushuniladi. Ularga ko'pincha "iste'molchilik investitsiyalari" (televizorlar, avtomobillar, kvartiralar, dala hovlilar va h.k.lar xaridi) kiradi, ammo ular o'z mohiyatiga ko'ra, investitsiyalarga kirmaydi, mazkur vaziyatda bu tovarlarni olishga qaratilgan mablag'lar bevosita uzoq muddatli iste'molga (agar ularni keyinchalik qayta sotish uchun olishmasa) sarflanadi.

"Investitsiyalar" tushunchasini "kapital qo'yilmalar" tushunchasiga aynan o'xshatish xato bo'ladi. Mazkur vaziyatda investitsiyalar asosiy fondlarni (binolar, uskunalar, transport vositalari va h.k.) takror ishlab chiqar-

ishga mablag' qo'yish sifatida qaraladi. Shu bilan bir qatorda investitsiyalar aylanma aktivlarga ham, turli moliyaviy vositalarga ham (aksiyalar, obligatsiyalar va h.k.), nomoddiy aktivlarning alohida turlariga ham (patentlar, litsenziyalar olish va h.k.) amalga oshirilishi mumkin. Demak, kapital qo'yilmalar tor ma'nodagi tushuncha hisoblanadi, ammo investitsiyalarning o'zaro o'xshashi emas, balki faqat ularning shakllaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Blank ham investitsiyalarning ayrim manbalarida pul mablag'larining qo'yilishi sifatida ta'riflanishi bilan kelisha olmaydi. U kapital investitsiyalash nafaqat pul, balki boshqa shakllarda – ko'char va ko'chmas mulk, turli moliyaviy vositalar, nomoddiy aktivlar va h.k. shakllarda ham amalga oshirilishi mumkinligini e'tirof etadi.

Va nihoyat, qator ta'riflarda investitsiyalar pul mablag'larining uzoq muddatli qo'yilmalarini o'zida mujassamlashtirishi qayd etiladi. Investitsiyalarning alohida shakllari (birinchi navbatda, kapital qo'yilmalar) uzoq muddatli tavsifga ega, biroq investitsiyalar qisqa muddatli bo'lishi ham mumkin (masalan, aksiyalarga qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar, jamg'arma sertifikatlari va h.k.).

"Investitsiyalar" tushunchasini tadbirkorlik faoliyati har xil turlarini birlashtiradigan toifa sifatida biriktirish uchun uning ko'proq tarqalgan tasniflanishini keltiramiz:

1. Qo'yilmalar obyektiga ko'ra:

a) moliyaviy investitsiyalar – korporativ huquqlar, qimmatli qog'ozlar, derivativlar va boshqa moliyaviy vositalarni qo'lga kiritish. Moliyaviy investitsiyalar, o'z navbatida, to'g'ridan-to'g'ri (mablag'larni yuridik shaxs ustav fondiga uni korporativ huquqqa ayirboshlagan holda o'tkazish) va portfelli (qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy aktivlarni fond bozorida olish) investitsiyalar ko'rinishida bo'ladi;

b) haqiqiy/kapital investitsiyalar – haqiqiy aktivlarga mablag'larni qo'yish – uylar, inshootlar, boshqa ko'chmas mulk obyektlari, boshqa amortizatsiyaga uchragan asosiy fondlar va nomoddiy aktivlarga ega bo'lish.

2. Investitsiyalashda qatnashish tavsifiga ko'ra:

a) to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar – investor tomonidan mablag'larni investitsiyalash obyektiga bevosita jalb qilish (investitsiyalash mazkur turini asosan, investitsiyalash obyekti haqida aniq ma'lumotga ega bo'lgan va investitsiyalash mexanizmi bilan yaxshi tanish bo'lgan, maxsus tayyorlangan investorlar amalga oshiradilar);

b) to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan investitsiyalar – boshqa shaxslar vositachiligidagi investitsiyalash. Bu investitsiyalarni investitsiyalash obyektlarini tanlash va keyinchalik ularni boshqarish uchun yetarli malakaga ega bo'lmagan investorlar amalga oshiradilar. Mazkur vaziyatda ular investitsion yoki boshqa moliyaviy vositachilar (masalan, investitsiya fondlari va investitsiya kompaniyalarining investitsion sertifikatlari) tomonidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlarga ega bo'ladilar, oxirgisi, shu tariqa to'plangan investitsiya mablag'lari esa o'z bilganlaricha joylash tiriladi, ko'proq samarali investitsiyalash obyektlari tanlab olinadi, ularni boshqarishda ishtirok etishadi, olingan daromadlar esa o'z mijozlari o'rtasida taqsimlanadi.

3. Investitsiyalash davriga ko'ra:

a) qisqa muddatli investitsiyalar – bir yildan oshmagan muddatga kapital qo'yish (masalan, qisqa muddatli depozit qo'yilmalar, qisqa muddatli jamg'arma sertifikatlari va h.k.lar);

b) uzoq muddatli investitsiyalar – bir yildan ortiq davrga kapital qo'yish. Ko'plab investitsiya kompaniyalarining amaliyotida uzoq muddatli investitsiyalar quyidagi tarzda ta'riflanadi: 2 yilgacha; 2 yildan 3 yilgacha; 3 yildan 5 yilgacha; 5 yildan ortiq muddatga.

4. Mintaqaviy belgisiga ko'ra:

a) ichki investitsiyalar – mablag'larni mazkur mamlakatlar ichkarisida joylashgan investitsiyalash obyektiga qo'yish;

b) chet elda investitsiyalash – mablag'larni mazkur mamlakatdan tashqarida joylashgan investitsiyalash obyektiga qo'yish.

5. Mulkchilik shakliga ko'ra:

a) xususiy – fuqarolar hamda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan mablag' qo'yilmalari;

b) davlat – byudjetlar, byudjetdan tashqari fondlar mablag‘lari hisobiga markaziy va mahalliy hokimiyat, boshqaruv organlari tomonidan hamda xususiy va qarz mablag‘lari hisobiga davlat korxonalari tomonidan amalga oshiriladigan qo‘yilmalar;

d) xorijiy – chet el fuqarolari, yuridik shaxslari va davlatlari tomonidan amalga oshiriladigan qo‘yilmalar;

e) qo‘shma – mazkur mamlakat va xorijiy davlatlar shaxslari tomonidan amalga oshiriladigan qo‘yilmalar.

## XULOSA

Investitsiyalarni moliya-kredit tizimining samarali faoliyatini ta’minlovchi muhim element sifatida tan olinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Investitsiyalar nafaqat xarajatlar sarfi, balki kelajakdagi qo‘yilmalar manbayidir, u bevosita investitsiyalar jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi. Investitsiyalardan davlat yoki korxona strategiyasi maqsadlari uchun ishlab chiqilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda foydalaniladi. O‘zbekistonda investitsiyalarni jalb qilish muammosi har doim hokimlar yoki tadbirkorlar uchun ham muhim masalardan biri bo‘lib kelgan. Mazkur muammolar iqtisodiyotning tub o‘zgarishida ham inqiroz sharoitida ham yanada dalzarbli muammolardan biriga aylangan edi.

Korxona investitsiya faoliyatining rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biri investitsiyalarning moliyalash manbalarini maqbul holatga keltirishdan iborat. Bugungi kunda hukumat davlat-xususiy sherikchilik masalasiga jiddiy e’tiborni qaratmoqda. Davlat-xususiy sherikchilik shakli kelajakda investitsiya sohasiga, xususan, konsessiyalarga o‘z ta’sirini ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

Demak, davlat bilan korporativ sektorning real investitsiyalarni yo‘naltirishga va qo‘yilmalar manbayini talab qiladigan investitsiya dasturlarini rivojlantirishga bo‘lgan ta’siri mamlakat darajasida ham hudud darajasida ham muhim strategik ahamiyatga ega. Bunda eng asosiysi investitsiya bozoridagi har bir ishtirokchining rolini va manfaatini to‘g‘ri tushunish, me’yoriy-huquqiy va shartnomaviy bazani aniq belglab olish, investitsiyalarning moliyaviy samardorligini ulardan foydalanishning barcha bosqichlarida tezkor tahlil qilish lozim bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Белякова М.Ю. Факторы, влияющие на инвестиционную активность Факторы, влияющие на инвестиционную активность. Сборник трудов секции "Инвестиции, инновации и экономическая безопасность". Вып. 8.- М.: Рос. экон. акад., 2004.

2. Вахабов А.В., Разыкова Г.Х., Хажибакиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Монография. Т.: Молия, 2011.-300 с.

3. Рашидова Ф. Ш. Иностранные Инвестиции В Развитии Предпринимательства–Как важный фактор формирования среднего класса в Узбекистане //Central asian journal of social sciences and history. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 76-86.

4. Рашидова Ф. Ш. Роль женского предпринимательства в развитии и процветании государства // Научный вестник СамГУ. Серия" Гуманитарные науки". – 2013. – №.4 (80). – С. 18.

5. Рашидова Ф. Ш. Иностранные Инвестиции В Развитии Предпринимательства–Как важный фактор формирования среднего класса в Узбекистане //Central asian journal of social sciences and history. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 76-86.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.